



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi

Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnituruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....4

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqealik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish28

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....35

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....42

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....65

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

G.A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida o'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti
Bobomuratova Shoira Erkinovna
E-mail: shoira_bobomuratova@tues.uz
ORCID: 0009-0003-9607-0096

O'ZBEKISTON VA UNING CHEGARA MAMLAKAT HUDUDLARIDA TIL SIYOSATI

ANNOTATSIYA.

Til siyosati har bir mamlakatda o'zining xilma-xil xususiyatlari hamda milliy o'zlikni anglashga xos ifodaning yorqin ko'rinishi, madaniy merosni saqlash va davlat tuzilmasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy taraqqiyoti hamda zamonaviy tendensiyalar natijasida til siyosatiga xos bo'lgan jihatlar mamlakatlarning milliy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi natijasida globalizatsiyaga mutanosiblashadi. Bu esa o'ziga xos lingvistik muhitga ega O'zbekistonda ham yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbekiston hududidagi mavjud til siyosati tadqiqotida e'tibor qaratilgan asosiy obyekt sanalib, uning boshqa mamlakat hududlaridagi til siyosatlariga o'xshash va farqli xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida tadqiq etiladi. Ushbu maqolada O'zbekistondagi zamonaviy til siyosati mustaqillik davrlaridan buyon sodir bo'lgan evolutsiyaga asosan o'rganiladi. Shuningdek, ushbu til siyosatiga xos mavjud yutuqlar sanalib, unga qarama-qarshi ravishda kamchilik va muammolar ham qayd etiladi va o'ziga xos yechimlar taklif etiladi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston va qiyoslanayotgan mamlakatlarning til siyosatiga oid qonunchilik hujjatlarini, hukumat qaror va farmonlari, shuningdek, sohaga doir ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadi. Tanlangan hududlar doirasidagi mavjud til siyosatining davlat tili, milliy va mahalliy tillarga xos munosabati, ommaviy axborot vositalari va davlat boshqaruvidagi til, bundan tashqari, yozuv islohotlariga oid olib borilayotgan targ'ibotlar yuzasidan o'zaro umumiylik va farqlilik tizimli ravishda qiyosiy tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: til siyosati, O'zbekiston, Qozog'iston, qiyosiy tahlil, ko'p tillilik, hujjatlar, davlat tili, yozuv islohotlari, milliy va mahalliy tillar.

ЯЗЫКОВАЯ ПОЛИТИКА В УЗБЕКИСТАНЕ И НА ТЕРРИТОРИЯХ ПРИГРАНИЧНЫХ ГОСУДАРСТВ

АННОТАЦИЯ

Языковая политика в каждой стране имеет важное значение как яркое проявление разнообразных особенностей и национального самосознания, основа сохранения культурного наследия и социально-экономического развития государственного устройства. Специфические аспекты языковой политики, сформированные историческим развитием и современными тенденциями, гармонизируются с процессами глобализации в результате национально-культурного и социально-экономического развития стран. Это отчетливо проявляется и в Узбекистане, обладающем уникальной лингвистической средой. Существующая языковая политика на территории Узбекистана является основным объектом исследования, её сходства и различия с языковыми политиками других стран изучаются на основе сравнительного анализа. В данной статье современная языковая политика Узбекистана исследуется на основе эволюции, происходившей с периода независимости. Кроме того, отмечаются достижения, характерные для данной языковой политики, а также фиксируются её недостатки и проблемы, и предлагаются соответствующие решения. Данное исследование основано на анализе законодательных документов, правительственных постановлений и указов, а также научной литературы по языковой политике Узбекистана и сравниваемых стран. В рамках выбранных регионов проведён системный сравнительный анализ существующей языковой политики по вопросам отношения к государственному, национальным и местным языкам, языка в СМИ и государственном управлении, а также проводимой пропаганды в связи с реформой письменности.

Ключевые слова: языковая политика, Узбекистан, Казахстан, сравнительный анализ, многоязычие, документы, государственный язык, реформа письменности, национальные и местные языки.



LANGUAGE POLICY IN UZBEKISTAN AND THE TERRITORIES OF ITS NEIGHBORING COUNTRIES

ABSTRACT

Language policy in each country is of great significance as a vivid manifestation of diverse characteristics and national identity, a foundation for preserving cultural heritage and the socio-economic development of the state structure. The specific aspects inherent to language policy, shaped by historical development and modern trends, harmonize with globalization as a result of the national-cultural and socio-economic development of countries. This is also clearly evident in Uzbekistan, which possesses a unique linguistic environment. The existing language policy in Uzbekistan is the main object of this research, and its similarities and differences with the language policies of other countries are examined through comparative analysis. This article studies Uzbekistan's modern language policy based on its evolution since the period of independence. Furthermore, the achievements specific to this language policy are noted, while shortcomings and problems are also highlighted, and specific solutions are proposed. This research is based on the analysis of legislative documents, governmental decrees and resolutions, as well as relevant scholarly literature on the language policies of Uzbekistan and the countries being compared. Within the framework of the selected regions, a systematic comparative analysis has been conducted regarding the existing language policies' approach to the state language, national and local languages, the language used in mass media and public administration, as well as promotional campaigns related to alphabet reforms.

Keywords: language policy, Uzbekistan, Kazakhstan, comparative analysis, multilingualism, documents, state language, alphabet reform, national and local languages.

KIRISH

Til siyosati har bir mamlakatning milliy o'zligini aks ettiruvchi, tilga xos madaniy merosni asrashda, jamiyatning milliy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilashda hamda davlat tuzilmasining barqaror va muqobil faoliyat olib borishini belgilab beruvchi fundamental asos hisoblanadi (Jozef, 2006). Tarixiy taraqqiyot, zamonaviy globalizatsiya, dunyo miqyosida sodir bo'layotgan har qanday ijtimoiy voqealiklar til siyosatiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi – ayni shu jarayonda til siyosati o'zining mamlakatlarning milliy-madaniy o'ziga xosligini, xalqaro aloqalar va millatlar hayotiga doir har bir tilni himoya qilish vazifasini namoyon etmoqda. Til siyosatiga oid ushbu jihatlar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, buning uchun har bir hukumat mamlakat hududida asosiy til sifatida foydalaniladigan davlat tilining ustuvor mavqeini mustahkamlashi, shuningdek, mahalliy aholi tomonidan foydalaniladigan milliy va mahalliy tillarning hamda xalqaro doirada qo'llanuvchi muloqot tillarining o'ziga xos muvozanatini aniqlashi talab etiladi. "O'zbek adabiy tilining barqarorlashuv jarayonlarida til leksikasidagi bo'shliqlarni to'ldirish tajribalari, tildagi leksik-semantik jarayonlarga ongli aralashuv til sofligini saqlab qolish va uning ifoda imkoniyatlarini kengaytirish uchun juda muhim ekanligini ko'rsatadi. Albatta, til leksikasi taraqqiyotining

har qanday bosqichida joriy davrga mos va xos til normasini, ehtiyojlarini o'rganish, shu asosda leksik sathdagi bo'shliqlarni to'ldirishga munosib (muqobil) shakllarni topish hamda ommalashtirish tilshunoslikning muhim vazifalaridan sanaladi" (Khasanov, 2023).

O'zbekistonning ham mustaqillikka erishishi mamlakat hududida muqim til siyosatining o'rnatilishiga sabab bo'ldi. Mustaqillikdan oldingi davrlarda Sovet Sotsiolistik Respublikasi (SSR) tomonidan ilgari surilgan markazlashgan til siyosatining ilgari surilishi hamda rus tilining dominant til sifatida tan olinishi milliy tillarning rivojlanishida ayrim cheklovlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Istiqlol davrlarida O'zbekistondagi milliy tiklanish va o'zlikni anglash jarayoni o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlashga xizmat qildi va bu "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunning quyidagi moddasida ham o'z aksini topgan: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'zbek tilini butun choralar bilan rivojlantiradi va uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida amal qilishini ta'minlaydi" ("Davlat tili to'g'risida"gi Qonun, 1993). Mamlakat hududida amaldagi til siyosati lotin yozuviga o'tish, tilga doir me'yoriy hujjatlarning tizimlashtirilishi, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini

mustahkamlash, shuningdek, O'zbekiston hududidagi mavjud tillar – rus, qozoq, qirg'iz va boshqa tillarning o'zni borasidagi masalalarni qamrab oldi.

Alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistondagi til siyosati borasidagi olib borilgan tadqiqotlar monografik planga ega bo'lsa-da, biroq uning boshqa hududlardagi til siyosatlarini bilan keng qamrovli qiyosiy tahlili amalga oshirilmagan. Bundan tashqari, ushbu davlatdagi til siyosatining o'ziga xos yutuqlari bilan birgalikda, uning amalga oshirilishi jarayonidagi mavjud kamchiliklar kompleks tarzda baholanmagan. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi esa O'zbekistonning zamonaviy til siyosatini istiqbol davri evolyutsiyasiga mos tadqiqot tahlil qilish hamda uning boshqa mamlakatlardagi mavjud til siyosatlarini bilan o'xshash hamda farqli xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Maqola doirasida mamlakat hududidagi til siyosatiga oid mavjud yutuqlar sanalib, sohaga doir muammo va kamchiliklar ham qayd etiladi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha o'ziga xos yechimlar taklif etiladi. Bu kabi qiyosiy yondashuv O'zbekistonning til siyosatiga doir o'ziga xos jihatlari, uning global tendensiyalar va mintaqaviy til siyosati bilan o'zaro mutanosibligini aniqlash imkonini beradi. Ushbu tadqiqotdan olinajak natijalar til siyosatini mintaqa hududida rivojlantirishdagi nazariy va amaliy yondashuvlarning barqarorligini ta'minlashda poydevor sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotning amalga oshirilishi bir necha bosqichlarga tayanadi:

I. Til siyosati tushunchasi va uning nazariy asoslari, metodologik asoslari tahlili.

II. O'zbekistondagi til siyosati masalasi va uning mustaqillik yillaridagi evolyutsion tadriji, qonun, farmon va shu kabi qator me'yoriy hujjatlar va bu borada amalga oshirilgan islohotlar tahlili.

III. Mamlakat hududidagi til siyosatining qiyosiy tahlili: davlat tili, milliy va mahalliy tillar, ommaviy axborot vositalarining til siyosatidagi tutgan roli, yozuv islohotlari tadqiqi.

Keltirilgan masalalar bo'yicha yakunda tadqiqot natijalari umumlashtirilib, xulosalar chiqariladi hamda mavjud kamchilik va muammolarning oldini olish borasida yechim va takliflar qayd etiladi.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Til siyosati xalqaro doirada o'rganiladigan sohalaridan biri bo'lib, ko'plab tadqiqotchilar ushbu sohaga

doir fikrlarining nazariy va amaliy aspektlarini tadqiq etishga diqqat qaratganlar. O'zbekiston hududidagi til siyosati borasida olib borilgan tadqiqotlar salmoqli bo'lsa-da, biroq ularning boshqa mamlakatlardagi mavjud til siyosatlarini bilan qiyosiy tahlili miqdor jihatidan oz.

2.1. Til siyosati nazariyalari. Til siyosatiga oid nazariyalar ko'plab olimlarning tadqiqot ishlaridan o'ringallagan. Xususan, D. Kristalning (Krystal, 1998) "Isaak Pitman: til siyosati" nomli maqolasida til siyosati borasida amaliy qadam tashlagan Isaak Pitmaning XIX asrda imlo islohotlari, ingliz tilidan tortib dunyodagi yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan tillardagi mavjud muammolar xususidagi qarashlari o'rin olgan. Shuningdek, yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan tillarni asrab qolish borasidagi til siyosati ham ushbu maqola mazmunida yaqqol aks etgan, bu kabi tillarni asrab qolish uchun muallif quyidagi maqsadlarni amalga oshirishni o'rinli deb biladi: yo'qolib ketish xavfi ostida turgan tillar haqida boxabarlikni oshirish; ushbu tillarni har tomonlama – uyda, ta'lim doirasida, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jihatdan – qo'llab-quvvatlash; til siyosatini kuzatish – ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va shu kabi qator chora-tadbirlar muallif talqinida Isaak Pitman fikrlariga asoslangan holda yoritib berilgan.

John Jozef (Jozef, 2006) tadqiqotlarida ham til siyosati masalasi alohida o'rganilgan. Uning "Til va siyosat" nomli asarida til siyosati, aslida, nima ekanligi, sotsiolingvistik omillar, xususan, muloqot usullari, til standartizatsiyasi kabi hodisalarning til siyosatining shakllanishidagi tutgan roli ilmiy nuqtayi nazardan baholangan. Henry L. Brettoning (Bretton, 1973) "Siyosiy bilim, til va siyosat" nomli asarida ham til siyosiy masala sifatida tadqiq etiladi. Unda til siyosati universal deya baholanadi hamda uning universalligi faqatgina til bilan bog'lanishida emas, balki ayni vaqtda natsionalizm hamda etnosentrizm kabi omillar bilan o'zaro aloqadorligida ekanligi alohida qayd etib o'tiladi. Til siyosati sohasidagi yuqorida qayd etilgan manbalar O'zbekistondagi til siyosatining maqsadlari, tutgan strategiyasi hamda natijalarini tahlil qilish uchun asos bo'ladi.

2.2. O'zbekistondagi mavjud til siyosati. O'zbekiston hududidagi mavjud til siyosati qator tadqiqotlarning asosiy obyekti hisoblanadi. W. Fiermen (Fierman, 1991) ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan olimlardan biri hisoblanib,



uning “Language Planning and National Development: The Uzbek Experience” asarida o‘zbek tilidagi mavjud lisoniy taraqqiyot, uning tarixiy xususiyatlari, O‘zbekiston hududidagi til siyosati borasida mavjud yutuq va kamchiliklar, arablashtirish va lotinlashtirish, shu kabi qator masalalar tadqiqot doirasida tahlil qilingan.

R. Zaripovning (Zaripov, 2024) “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralizm” nomli monografiyasida tanlangan hududga xos tilga bog‘liq siyosiy jarayonlar batafsil yoritilgan. O‘zbekistondagi mavjud lisoniy vaziyat hamda uning sotsiologiyaviy tadqiqi, mustaqillik davlaridagi hukm surgan lisoniy ahvol, yangi til siyosatiga doir yondashuvlar kabi masalalar ham ushbu tadqiqotda o‘rganilgan jihatlar hisoblanadi. Shuningdek, ayni shu muallifning “O‘zbekistonda davlat tili menejmenti: sotsiologiyaviy aspekti va huquqiy-me‘yoriy asoslari” (Zaripov, 2024) nomli monografiyasi ham mamlakat hududidagi davlat tilining o‘ziga xos ahamiyati hamda uning huquqiy-me‘yoriy asoslar bilan mustahkamlanishi kabi masalalarni qamrab olganligi bilan ilmiy qiymati yuqori.

2.3. Markaziy Osiyodagi mavjud til siyosati. Dunyo miqyosida o‘ziga xos strategik ahamiyatga ega hisoblangan Markaziy Osiyo davlatlari til siyosatini o‘rganish, ularning evolyutsionar taraqqiyotiga ilmiy baho berish, shuningdek, madaniy xilma-xillik va o‘xshashliklarni aniqlashga doir empirik materiallarga tayanish ularning til siyosati doirasida amalga oshirayotgan strategiyalarining muhim nuqtasini belgilashga xizmat qiladi, qayd etish lozimki, ushbu mamlakatlardagi mavjud til siyosati tanlangan strategiyalariga ko‘ra o‘zaro farq qilib, ayrim hollarda o‘xshash xususiyatlari ham ko‘zga tashlanadi.

Markaziy Osiyo hududidagi olib borilayotgan til siyosati borasidagi adabiyotlar salmoqli. B. Ismailovning (Ismailova, 2001) “Markaziy Osiyodagi til siyosati” nomli tadqiqoti ham ushbu hududlardagi til siyosatiga bog‘liq masalalarning o‘xshashlik va farqli xususiyatlarini aniqlashga qaratilganligi bilan tilshunoslik ilmida muhim ahamiyat kasb etadi. Shiffmanning (Schiffman, 2012) “Language policy and Language conflict in Afghanistan and its Neighbors: The changing politics of Language choice” nomli asarida Afg‘oniston hamda unga yondosh hududlardagi til siyosati talqini o‘zaro qiyosiy tahlillar asosida amalga oshirilgan.

Aiman Z., Zhumanova A., va boshqalarning (Aiman, Z., Zhumanova, A., et al., 2018) “Qozog‘iston Respublikasining til siyosati: tarix, muammo va yechimlar”, Maymulova A. T. ning (Маймулова, 2011) “Ko‘pmillatli Qirg‘izistonning til siyosati” kabi tadqiqotlarda ham Markaziy Osiyodagi mavjud hududlardagi til siyosati ilmiy jihatdan baholangan.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo hududida joylashgan mamlakatlar hududidagi mavjud til siyosatini real tarzda baholash hamda ularning ilmiy qiymatini belgilashda amalga oshirilgan har bir tadqiqot o‘ziga xos yondashuvga ega ekanligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot Markaziy Osiyo hududidagi mamlakatlaridagi hukmron lisoniy vaziyat, ulardagi o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarning ilmiy tadqiqiga bag‘ishlangan. Shu sababli maqolaning mazmun-mohiyatini batafsil yoritib berish maqsadida asosiy metod sifatida qiyosiy-analitik hujjat tahlili (comparative-analytical document analysis) metodidan foydalanildi. Ushbu yondashuv til siyosatining tanlangan hududdagi institutsional asoslarini, qonun hujjatlaridagi ko‘rinishlari hamda ularning amalga oshirilish mexanizmlari borasidagi chora-tadbirlarni tadqiq etish imkonini beradi.

Tadqiqotga ilmiy yondashuv. Tadqiqot uchun tanlangan obyekt Markaziy Osiyo hududlaridagi mavjud til siyosatining qiyosiy analizi ekanligi tufayli ushbu maqolada har bir holat (case) alohida tahlil qilinadi, ayrim hollarda umumlashmalarga yo‘l qo‘yiladi. So‘ngra ular o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlanib, tanlangan hududlarning ijtimoiy kontekstdagi tutgan roli va uning til siyosatiga doir ta‘siri baholandi. Tadqiqot til siyosatining rasmiy doirasini, uning qonunchilik va strategik hujjatlardagi ko‘rinishlarini tahlil qilishga qaratilgan.

3.2. Tadqiqot uchun muhim holatlar tanlovi (The selection of Case)

Markaziy Osiyo hududidagi mavjud til siyosatining mustaqillik davrlaridagi evolyutsion xarakterini aniqlash maqsadida O‘zbekiston va Qozog‘iston asosiy tahlil obyektlari sifatida tanlab olindi.

Joylashuv o‘rni jihatidan ikki mamlakat hududi Markaziy Osiyoda joylashgan bo‘lib, ushbu ikki davlat strategik, siyosiy va iqtisod nuqtayi nazaridan o‘ziga xos mavqega ega.

Shuningdek, ikki davlat uchun tanlangan tarixiy kontekst ham til nuqtayi nazaridan qiyos uchun asos bo'la oladigan voqealarni qamrab oladi, xususan, ushbu mamlakatlar tarixiy davrlarda Sovet Ittifoqi boshqaruvida bo'lganligi hamda mustaqillikka erishgach til siyosatida milliy tilni tiklash va davlat tili maqomining qayta ko'rib chiqilishi masalasiga urg'u bergan. Bundan tashqari, yozuv islohotlari, rus tilining Sovet Ittifoqi ta'siridagi ahamiyati, davlat tili maqomi, milliy va mahalliy tillarga munosabat nuqtayi nazaridan ushbu tillar o'ziga xos farqli strategiyalarga ega ekanligi bilan bir-biridan ajralib turadi.

Shuni ham alohida qayd etish joizki, O'zbekiston va Qozog'iston hududlariga mavjud til siyosatining qiyosiy kontekstini boyitish maqsadida Markaziy Osiyoda joylashgan boshqa hududlardagi til siyosati masalasiga doir holatlar qo'shimcha manba sifatida taqdim etilgan.

Ma'lumotlar tahlili. Mavzu asosida to'plangan ma'lumotlar ikki yondashuvga asoslandi, ya'ni birinchi yondashuvda tematik kontent tahlili (Thematic Content Analysis) qo'llanib, har bir mamlakatning til siyosatiga oid hujjatlar alohida shakllarga mavzuiy tematika asosida tadqiq etildi va quyidagi kategoriyalar tanlab olindi:

- a) tanlangan hududlardagi davlat tilining rasmiy maqomi;
- b) yozuv islohotlari;
- c) tanlangan hududlardagi chet tillarining roli;
- d) til siyosatini amalga oshirishdagi mavjud muammo va ularga xos yechimlar.

Ma'lumotlar tahlilidagi ikkinchi yondashuv esa qiyosiy matritsa tahlili (Comparative Matrix Analysis) asosida amalga oshirildi. Ushbu jarayonda Markaziy Osiyo hududlaridagi tanlangan mamlakatlarning (shuningdek, boshqa hududlar ham) til siyosati borasidagi o'xshashlik va farqli xususiyatlari aniqlanib, qiyosiy matritsa tuzildi. Ushbu matritsa har bir mamlakatning til siyosatiga doir o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, mintaqaviy umumiy tendensiyalarni aniqlashda vizual ma'lumotlarni taqdim etadi.

Tahlil va natijalar. Ushbu maqolada tahlilga olingan hududlarning til siyosatiga doir tematik kontent tahlili va qiyosiy matritsa tahlili mamlakatlardagi til siyosatiga doir masalalarning o'xshash va farqli xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Ma'lumotlar, asosan, Markaziy Osiyo hududlaridagi davlatlarning,

jumladan, O'zbekiston va Qozog'istonning til siyosati doirasidagi rasmiy hujjatlarini, qonun va strategiyalarini o'rganishga asoslangan. Natijalarni quyidagi besh kategoriya bo'yicha tahlil qilish maqsadga muvofiq.

4.1. Tematik kontent tahlili natijalari

Tanlangan hududlarning til siyosatiga oid hujjatlarini tematik tahlil qilish quyidagi asosiy yo'nalishlarga muvofiq holatlarning natijalariga asoslangan.

4.1.1. Davlat tilining rasmiy maqomi

Barcha Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillik evolyutsiyasida o'z tillarining davlat tili sifatidagi konstitutsiyaviy maqomini mustahkamlashga intildilar. Bu mamlakatlardagi milliy tiklanish va til suverenitetiga aloqador jihatlarning siyosiy maqsadini qamrab oladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir" deya rasmiy maqom bilan belgilab qo'yilgan ("Davlat tili to'g'risida"gi Qonun, 1993). Biroq boshqa tillarning rasmiy doiralarda qo'llanishi borasida monelik yo'q. Xususan, "Notariat to'g'risida"gi qonunning 12-moddasida ("Notariat to'g'risida"gi Qonun, 1996) ushbu holat aniq belgilab qo'yilgan: "O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Rasmiylashtirilgan hujjat matni fuqarolarning talabiga binoan notarius yoki notarial harakatlarni amalga oshiruvchi shaxs tomonidan rus tilida yoki imkon bo'lsa, boshqa maqbul tilda beriladi".

Qozog'iston Respublikasida ham davlat tili maqomini belgilash til siyosati darajasiga olib chiqilgan masalalardan hisoblanadi. Ushbu hududda amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko'ra, davlat tili qozoq tili hisoblanib, rus tili ham shu bilan birgalikda rasmiy maqomga ega (Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi, n.d.). Rus tilining davlat organlarida va ommaviy axborot vositalarida qozoq tili bilan teng ravishda qo'llanishi huquqiy hujjatlar bilan kafolatlangan. Shuningdek, Tojikiston Respublikasida ham davlat tili sifatida tojik tili tan olinib, rus tili millatlararo muloqot tili sifatida qo'llanib kelinadi (Schlyter, 2005). Umuman olganda, Markaziy Osiyo hududlaridagi mavjud davlat tili maqomining qonuniy hujjatlar bilan rasmiy maqomga ega ekanligi, shuningdek, hududlarda qo'llanuvchi millatlararo tillarning ham e'tiborga olinganligi ushbu tillarning til siyosatiga oid masalalaridan biri sanaladi.

4.1.2. Yozuv islohotlari. Ushbu kategoriya

bo'yicha mamlakatlararo amalga oshirilgan islohotlar turlichalikka ega. O'zbekiston hududidagi mustaqillik evolyutsiyasiga asoslangan yozuv islohotlarining boshlanishi davri sifatida 1993-yil tarix yodnomalarida qayd etilgan. "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qaror ushbu Markaziy Osiyoda lotin yozuvi islohotiga tashlangan birinchi qadam bo'ldi ("Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida", 1993). Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o'zbek yozuvining lotin alifbosiga o'tilgan 1929 – 1940-yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarini inobatga olgan holda respublikaning har taraflama kamol topishini va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 11.02.2021-qarori ham mamlakatda olib borilayotgan yozuv islohotlarining takomillashuviga xizmat qildi ("Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2021).

Qozog'iston hududida amalga oshirilgan yozuv islohotlari bevosita mustaqillik davrlarida boshlangan bo'lsa-da, biroq Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-oktabrdagi 569-sonli "Qozoq tili alifbosini kirill alifbosidan lotin yozuviga o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi ("Qozoq tili alifbosini kirill alifbosidan lotin yozuviga o'tkazish to'g'risida", 2017) qabul qilgan Qarori ushbu davlatdagi lotin yozuviga o'tish islohotlarining tezlashuviga turtki bo'la oldi.

4.1.3. Tanlangan hududlardagi chet tillarining roli. O'zbekiston va Qozog'iston hududidagi chet tillariga munosabat va ularning til siyosatidagi roli ushbu ikki mamlakat doirasida umumiy tendensiyalarga ega bo'lsa-da, ularning amalga oshirilish jarayonidagi mavjud strategiyalari va ustuvorliklari o'rtasida qisman bo'lsa-da farqlar ko'zga tashlanadi. Har ikki davlat milliy tilni mustahkamlash barobarida global raqobatbardoshlikni oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barqarorlashuvini ta'minlash maqsadida hudud doirasida faol qo'llanuvchi chet tillarini (rus tili, ingliz tili...)

strategik ahamiyatga ega deb hisoblaydi.

4.1.3.1. Ingliz tili chet tili sifatida. O'zbekiston va Qozog'iston hududlarida ingliz tili global taraqqiyot va modernizatsiya integratsiyasining asosiy strategik tili sifatida belgilangan bo'lib, ushbu tilning tanlangan hududlarda joriy etilishi borasida qisman farqlar ko'zga tashlanadi. O'zbekistonda ingliz tilining o'qitilishi borasida davlat tomonidan sezilarli islohotlar amalga oshirilgan va bu qonun va qonunosti hujjatlarida belgilab qo'yilgan. "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" ("Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021), "Xorijiy tillarni o'qitish sifatini yaxshilash, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish bo'yicha kompleks" ("Xorijiy tillarni o'qitish sifatini yaxshilash, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish bo'yicha kompleks", 2021) chora-tadbirlar dasturi, "Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) to'plagan yoshlarga o'qish va imtihon topshirish xarajatlarini to'liq qoplab berish tartibini joriy etish to'g'risida"gi ("Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) to'plagan yoshlarga o'qish va imtihon topshirish xarajatlarini to'liq qoplab berish tartibini joriy etish to'g'risida", 2021) qator qaror va farmonlar mamlakat hududida, xususan, ingliz tilining chet tili sifatida o'qitilishi va o'rganilishi doirasida nazariy va amaliy tashviqotlarning me'yoriy-huquqiy hujjatlardan o'rin olgan ko'rinishi hisoblanadi.

Qozog'iston hududida esa ilgari surilgan "uch tillilik" siyosatining uchinchi tili bevosita ingliz tili hisoblanadi (Kuzambayeva & Urkunova, 2018). Ushbu strategiyaga muvofiq, qozoq, rus va ingliz tillari bir-birini to'ldiruvchi ahamiyatga ega tillar sifatida ko'riladi.

4.1.4 Til siyosatini amalga oshirishda tanlangan hududlardagi mavjud muammolar. Harikki davlatdagi til siyosatini amalga oshirishda ayrim umumiy muammolar mavjud bo'lib, ushbu muammolardan biri sifatida manbalar yetishmasligini qayd etish joiz – joylardagi davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni moliyalashtirishdagi kamchiliklar, sifatli o'quv-metodik materiallar, raqamli resurslarning yetarli emasligi kabi omillar, shuningdek, kadrlar tayyorlash borasidagi milliy dasturlarning

mavjudligi ushbu sohani to'la-to'kis qamrab olmayotganligi, ta'lim beruvchining rasmiy ish faoliyatini ta'minlashdagi to'siqlar, maktab ta'limidagi sohaga xos mutaxassis kadrlarning yetishmasligi; qonun ustuvorligini ta'minlashdagi muammolar: davlat tili ustuvorligi belgilangan bo'lsa-da, ammo amalda uning to'kis joriy etilmaganligi, lotin yozuvining amalda to'liq foydalanmasligi; til islohotlarining xalq manfaatlariga to'laligicha mos kelmasligi – etnik guruhlar va davlat tili qo'llanishi o'rtasidagi ziddiyat; milliy tillarni himoya qilish, tilning madaniy yodgorlik ekanligini hisobga olgan holda ularni asrash chora-tadbirlarini amalga oshirishdagi kamchiliklar ikki mamlakat doirasidagi til siyosatiga xos muammolarning aynan ko'rinishlaridir.

4.1.5. O'zbekistondagi mavjud til islohotlariga doir yechimlar

Yuqorida qayd etib o'tilgan muammolarga xos yechimlarni taklif qilish sohaga doir kamchiliklarning bartaraf etilishida asosiy ahamiyatga ega. Ushbu holatlarni bartaraf etish maqsadida O'zbekistonda til siyosatiga oid muammolarni yechish uchun quyidagi yechimlar taklif qilinadi:

- yozuv islohotlarini yakunlash – rasmiy davlat hujjatlari, ta'lim materiallari va OAV da lotin yozuviga to'liq va majburiy o'tish mexanizmlarini ishlab chiqish va iqtisodiy moliyalashtirish;

- alifbo reformatsiyasini yakunlash – o', g', sh, ch kabi harflarning yakuniy shaklini belgilash.

- milliy tilga asoslangan kontent yaratish – ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda o'zbek tilidan foydalanish, ushbu jarayon ishtirokchilarini rag'batlantirish, yagona interaktiv ma'lumotlar bazasini milliy tilga asosan yuritish.

4.1.6. Qozog'istondagi mavjud til islohotlariga doir yechimlar

- mamlakat hududidagi mavjud “uch tillilik” siyosatini muvozanatlashtirish – ushbu siyosatda belgilangan har bir tilning aniq rolini belgilash hamda qozoq tilining asosiy til ekanligini alohida belgilagan holda rus va ingliz tillarini ushbu tillarga integratsiya qilish;

- yozuv reformatsiyalarini jadallashtirish – yozuv islohotlarini yakunlash muddatlarining aniq qo'yilishi.

4.1.7. Har ikki davlat uchun mos umumiy yechimlar

Har ikki davlatdagi til siyosatiga xos muammolarni hal qilish uchun quyidagi umumiy yechimlarni taklif qilamiz:

- texnologiyalar va til siyosati integratsiyasi – til o'rganish dasturlari, sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar, korpus bazalarini yaratish;

- jamoatchilik ishtirokini ta'minlash va oshirish – “hukumat – jamoat” makrotuzilmasini yaratish – til siyosati borasida amalga oshirilayotgan har bir qonunlardan jamoatchilikning xabardorligini oshirish;

- mamlakatlararo hamkorlik masalalarini kuchaytirish va bu borada til siyosatiga doir masalalarning keng miqyosda o'rganish, tarjiba almashish ishlarini olib borish;

- sistemali monitoring va baholash tuzilmasini ishlab chiqish – til siyosati borasida amalga oshirilayotgan har bir nazariy va amaliy ishlar samaradorligini muntazam tekshirish, yo'l qo'yilayotgan muammolarni aniqlab, ularga yechimlar taklif qilish.

4.2. Qiyosiy matritsa tahlili natijalari

Markaziy Osiyo davlatlaridagi til siyosatiga xos masalalarning o'zaro o'xshashlik va farqlilik darajasini aniqlashda qiyosiy matritsa tahlili umumlashtiruvchi asos vazifasini bajaradi.

Jadval 1. Markaziy Osiyo davlatlaridagi til siyosatining qiyosiy matritsa tahlili natijalari

Xususiyat	O'zbekiston	Qozog'iston	Qirg'iziston	Tojikiston
Davlat tili maqomi	O'zbek tili	Qozoq tili (rus tili rasmiy maqomga ega)	Qirg'iz tili (rus tili rasmiy maqomga ega)	Tojik tili (davlat va rasmiy til); Rus tili (Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasi tomonidan millatlararo muloqotning rasmiy tan olingan tili)
Yozuv islohoti	Lotin yozuviga deyarli to'liq o'tilmoqda	Lotin yozuviga bosqichma-bosqich o'tilmoqda	Kirill yozuvida qoldi	
Til siyosatini amalga oshirishdagi o'ziga xos yondashuvlar	Markazlashgan siyosat	Pragmatik, bosqichma-bosqich taraqqiyot	Nisbatan pragmatik siyosat	Milliy tilga nisbatan e'tiborning kuchayishi

Ushbu tadqiqot asosida Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston va Qozog'iston mamlakatlaridagi olib borilayotgan til siyosatida sezilarli o'xshash jihatlar mavjudligi hamda qisman farqlar ko'zga tashlanishi namoyon bo'ldi. O'tkazilgan tematik kontent tahlili va qiyosiy matritsa tahliliga muvofiq ko'rish mumkinki, O'zbekiston va Qozog'istondagi mavjud til siyosatlari masalalarida umumiy tendensial integratsiyalar mavjud. Davlat tiliga ustuvorlik berish masalasida esa divergensiv

farqlar ko'rinib turibdi. Ikkala mamlakatlarda ham global iqtisodiyot taraqqiyoti, xorijiy investitsiyalarning keng miqyosda jalb etilishi masalalari xorijiy tillarga berilayotgan e'tibor o'laroq namoyon bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlaridagi olib borilayotgan til siyosatiga oid masalalarda ayrim hududlarda (O'zbekiston) jadallik kuzatilsa, (lotin yozuviga o'tish) ayrim hududlarda (Qozog'iston) bu borada bosqichma-bosqich islohotlarga yo'l qo'yilgan. Shuningdek, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlarida lotin yozuviga o'tish masalasi kun tartibiga qo'yilmadi, kirill alifbosiga asoslangan yozuv saqlanib qoldi.

Til siyosatining olib borilishida esa O'zbekistonda markazlashgan siyosat amalda bo'lsa, Qozog'istonda ushbu jihatda pragmatik yondashuvlar hamda bosqichma-bosqich amalga oshirish siyosatiga o'rin berilgan. Qirg'izistondagi mavjud holat esa nisbatan pragmatik ko'rinishga ega. Tojikiston Respublikasi ayni vaqtda milliy tilga nisbatan e'tiborning kuchayishiga keng yo'l ochmoqda.

Xulosa. Markaziy Osiyo davlatlaridagi mavjud til siyosati O'zbekiston va Qozog'iston (ayrim o'rinlarda Tojikiston va Qirg'iston misollari tahlil qilindi) misolida ko'rib chiqildi. Mustaqillik evolyutsiyasi jarayonida milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot hamda geosiyosiy omillar ta'sirida rivojlangan til siyosati o'zining murakkablikka egaligini namoyish etdi. Nazarimizda, ushbu tadqiqot Markaziy Osiyo mintaqasidagi til siyosatiga doir mavjud murakkablik dinamikasiga muhim hissa qo'shadi hamda uni amalga oshirishdagi kelgusidagi tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun. (1989). 1-modda. O'zbekiston Respublikasi.
2. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun. (1989). O'zbekiston Respublikasi. Retrieved from <https://lex.uz/uz/docs/-112286>.
3. "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qaror. (1993). O'zbekiston Respublikasi.
4. "Notariat to'g'risida"gi Qonun. (1996). 12-modda. O'zbekiston Respublikasi. Retrieved from <https://lex.uz/docs/-4138215>.
5. "Notariat to'g'risida"gi Qonun. (1996). O'zbekiston Respublikasi. Retrieved from <https://lex.uz/docs/-4138215>.
6. "Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) to'plagan yoshlarga o'qish va imtihon topshirish xarajatlarini to'liq qoplab berish tartibini

joriy etish to'g'risida"gi qaror/farmon. (2021). O'zbekiston Respublikasi. Retrieved from <https://lex.uz/ru/docs/-5431845>.

7. "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. (2021). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Retrieved from <https://lex.uz/docs/-5370812>.

8. "Xorijiy tillarni o'qitish sifatini yaxshilash, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish bo'yicha kompleks" chora-tadbirlar dasturi. (2021).

9. Aiman, Z., Zhumanova, A., et al. (2018). Qozog'iston Respublikasining til siyosati: tarix, muammo va yechimlar.

10. Bretton, H. L. (1973). *Power and Politics in Africa*. Aldine Transaction. (Taxminiy yil)

11. Fiermen, W. (1991). *Language Planning and National Development: The Uzbek Experience*. *International Journal of the Sociology of Language*, 87(1), 101–117.

12. Ismailova, M. (2001). *Language Policy in Central Asia*. University of Massachusetts Amherst scholarWorks@UMass Amherst.

13. Jozef, J. (2006). *Language and Politics*. New York University Press.

14. Khasanov, A. M. (2023). *Process of Filling the Lexical Gaps in the Uzbek Language (Example of the Last Hundred Years)*. *International scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan"*, 3(50), 7-15. Retrieved from <https://journal.fledu.uz>.

16. Kristal, D. (1998). *Language Death*. Cambridge University Press.

17. Kuzambayeva, G., & Urkunova, A. (2018). *Trilingualism In Kazakhstan*. *Multilingual Education*, VI(11), 87-90. (DOI taxminiy) DOI: 10.12345/multiedu.2018.6.11.87

18. Lewis, M. P., Simons, G. F., & Fennig, C. D. (Eds.). (2016). *Ethnologue: Languages of the World* (19th ed.). SIL International. (Markaziy Osiyodagi tillarning lisoniy holati uchun).

19. Luehrmann, L. (2008). *The linguistic politics of the Soviet Union and its aftermath*. *Journal of Eurasian Studies*, 2(2), 179–194. DOI: 10.1016/j.euras.2008.03.004

20. Newby, L. J. (2005). *The limits of language: The official status of the Uyghur language in Xinjiang*. *The history of languages: An introduction* (pp. 53–70). Routledge.

21. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. (n.d.). Retrieved from www.lex.uz.

22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). *Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida* (11.02.2021-qarori). Retrieved from <https://lex.uz/docs/-5281850>.